

SEZGI FE'LLARI BOSHQARUVIDAGI BILAN KO'MAKCHILI BIRIKMALAR SEMANTIKASI

Mirzakarimova Z.D.

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sezgi fe'llarini bir necha kichik semantik maydonlarga tasnif qilib, keyin ularning 'holat' valentligi tadqiq etiladi. Bunda sezgi fe'llari besh kichik semantik maydonga ajratiladi va misollar orqali taxlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *semantik maydon, sezgi fe'llari, xolat bildiruvchi otlar, valentlik*

АННОТАЦИЯ

В этой статье сенсорные глаголы классифицируются по нескольким подсемантическим областям, а затем исследуется их «состояние» валентности. В этом случае сенсорные глаголы делятся на пять субсемантических полей и анализируются на примерах.

Ключевые слова: *семантическое поле, интуитивные глаголы, условные существительные, валентность.*

ABSTRACT

This article classifies sensory verbs into several sub-semantic areas and then examines their 'state' valence. In this case, the sensory verbs are divided into five sub-semantic fields and analyzed by examples.

Keywords: *semantic field, intuitive verbs, conditional nouns, valence*

KIRISH

O'zbek tilida bir katta semantik maydonni sezgi fe'llari tashkil qiladi. Ular ham 'holat' semantikasi asosidagi 'holat' valentligiga ko'ra bilan ko'makchisi vositasida otlar bilan birikma hosil qiladi. Bu semantik maydondagi fe'llar salmoqli bo'lganligi uchun ham ikkita nomzodlik dissertatsiyasining tekshirish ob'ekti bo'lgan. Ulardan biri T.Musaevning qalamiga mansub bo'lib, u nomzodlik dissertatsiyasini «Sezgi va xohish-istak fe'llari valentligi» deb nomlagan¹. U shu fe'llarning agens valentliklari yuzasidan bir risola ham e'lon qilgan². Ikkinchi bir nomzodlik dissertatsiyasi ham

¹ Мусаев Т.Т. Глаголы ощущения в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. –Т., 1992. –17 с.

² Мусаев Т. Сизги ва хошиш-истак феълларининг агенс валентлиги. –Т., 1991. –Б. 42.

yoʻzilgan. U faqat nigoh feʼllariga bagʻishlangan boʻlib, turk tilidagi nigoh feʼllari bilan qiyoslab tahlil etilgan³.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Sezgi feʼllarini bir necha kichik semantik maydonlarga tasnif qilib, keyin ularning 'holat' valentligini tadqiq etishga to'g'ri keladi. Sezgi feʼllarini tadqiq etish, albatta, psixologiya fanidagi sezgi organlari turlariga qarab amalga oshirishga to'g'ri keladi. Sezgi organlari psixologiya fanida beshga boʻlib ko'rsatiladi: 1) tasmollab sezish; 2) ko'rib sezish; 3) eshitib sezish; 4) tam sezish; 5) hid sezish organlari⁴. Sezgi feʼllari mana shu sezish turlari bo'yicha beshga bo'linadi. Bu M.M.Mirtojiyevning doktorlik dissertatsiyasida ham⁵, T.Musaevning nomzodlik dissertatsiyasida ham⁶ tilga olingan. Sezgi feʼllarining besh kichik semantik maydoni quyidagicha nomlanadi: 1) tasmollab sezuv feʼllari; 2) nigoh feʼllari; 3) eshituv feʼllari; 4) tam sezuv feʼllari; 5) hid sezuv feʼllari;

Tasmollab sezuv feʼllari *sezmoq, his qilmoq, bilmoq, qadarmoq, botmoq, tuyulmoq, sanchmoq* va hokazolardan iboratdir. Bu feʼllar ham o'z sememasida 'holat' semasini saqlaydi va shu holat semasi bo'yicha 'holat' valentligiga ega. U 'holat' valentligi asosida *bilan* ko'makchisi orqali otlar bilan aloqaga kirishadi, ya'ni birikma hosil qiladi.

Tasmollab sezuv feʼllari 'holat' valentligiga ko'ra *bilan* ko'makchisi vositasida otlarni boshqarib kelishiga biz yiqqan materiallar ichida misol uchramadi. Bu degan so'z yuqoridagi jumlaning inkor etish emas. Masalan, *og'riq bilan his qildi, alam bilan sezdi* kabi birikmalarni eslash mumkin. Bunda tasmollab sezuv feʼllari *bilan* ko'makchisi vositasida *og'riq, alam* otlarini boshqarib kelganligini kuzatamiz. Bu boshqaruv feʼllarning 'holat' valentligiga ko'ra shakllangan birikmalardir.

Nigoh feʼllari o'zbek tilida juda ko'p. Ular *qaramoq, anglamoq, kuzatmoq, termulmoq, tikilmoq, razm solmoq, ko'rmoq, boqmoq, tomosha qilmoq, ko'z tikmoq* kabilardan iboratdir. Ular *bilan* ko'makchisi vositasida turli semantikaga ega otlarni boshqarib keladi. Bunda ham bu otlar nigoh feʼllarining 'holat' bildiruvchi

³ Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. –Т., 2000. –Б. 24.

⁴ Лурия А.Р. Ощущение и восприятие. –М.: ИМУ, 1975. –С.11.

⁵ Миртожиёв М.М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке: Автореф.дисс. ... д-ра.филол.наук. –Т., 1989. – 44 с.

⁶ Мусаев Т. Сезги ва хоҳиш-истак феълларининг ағенс валентлиги. –Т., 1991. – Б.42.

7.Мирзакаримова З.Д.Феъл бошқарувидаги билан кўмакчили бирикмалар семантикаси: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. –Т., 2008. –Б. 24.

valentligining namoyon bo'lishi hisoblanadi. Tarkib topgan birikma klassemasi ham holat bildirib keladi. Nigoh bildiruvchi fe'llar *bilan* ko'makchisi vositasida boshqarib kelgan otlar bir necha semantik maydonga xos bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Nigoh bildiruvchi fe'llar *bilan* ko'makchisi vositasida ruhiy holat bildiruvchi otlarni boshqarib keladi. Masalan, *Jahl bilan uning ko'zlariga qaradim* (S.Ahmad). *Usta, xo'p deng!-yalingan ohang bilan bobomga qaraydi* (Oybek). *Kuchli bir ishtiyoq bilan atrofga alangladim* (O'.Hakimali). *Qomatini rostlagan Sherxon Dadajonning yuz-ko'zlariga g'azab va alam bilan tikildi* (J.Ikromiy). Bu gaplarda nigoh fe'llari *qaramoq, anglamoq, tikilmoq* bo'lib, ular *jahl, ohang, ishtiyoq, g'azab, alam* otlarini boshqarib kelgan. Bu otlar ruhiy holat bildiradi, ya'ni ular sememasida 'holat' semasi bor.

2. Nigoh fe'llari *bilan* ko'makchisi vositasida 'holat' valentligiga ko'ra holat bildiruvchi otlarni boshqarib keladi. Masalan, *Dilorom esa hay-haylagancha, o'g'li ortidan botiniy bir bezovtalik bilan qarab qoladi* (N.Qilich). *Bemor mashaqqat bilan boshini burib, deraza tomonga qaradi* (S.Ahmad). Bu gaplardagi *qaramoq* nigoh fe'llari holat bildiruvchi *mashaqqat, bezovtalik* otlarini *bilan* ko'makchisi vositasida boshqarib kelgan. Ular, albatta, nigoh fe'llarining namoyon bo'lgan 'holat' aktantlaridir.

3. Nigoh fe'llari *bilan* ko'makchisi vositasida nigoh holatini bildiruvchi otlarni boshqarib keladi. Masalan, *Ular bir-birlariga sergak nazar bilan tikilib, bir zum tek qotishadi* (N.Qilich). *O'rtog'ining bu samimiyatini Salti ham ko'z bilan ko'ribgina emas, ko'ngil bilan sezib anglagan edi* (Cho'lpon). *Yusufbek sinchkovlik bilan ularga bir-bir razm solib chiqdi* (E.Turon). Bu gaplardagi *tikilmoq, ko'rmoq, razm solmoq* nigoh fe'llari *bilan* ko'makchisi vositasida nigoh holatini bildiruvchi *nazar, ko'z, sinchkovlik* otlarini boshqarib kelgan. Bu boshqaruv ham nigoh fe'llining 'holat' valentligini namoyon etadi.

4. Nigoh fe'li *bilan* ko'makchisi vositasida nutq holatini bildiruvchi otlarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan, *Elmurod «o'yin-kulgini yaxshi ko'radigan odam gapiryapti» deganday piching bilan qarab turdi* (Shuhrat). Bu gapda *qarab* nigoh fe'li 'holat' valentligi asosida *bilan* ko'makchisi orqali nutq holatini bildiruvchi *piching* otini boshqarib kelgan.

5. Nigoh bildiruvchi fe'llar *bilan* ko'makchisi vositasida 'holat' valentligiga ko'ra mushohada bildiruvchi otlarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan, *Bittayarimta sezgani yo'qmi, degan o'y bilan atrofga alangladi* (S.Ahmad). *O'yin tugaguncha ikki do'st diqqat bilan tomosha qilishdi* (Sh.Xolmirzaev). *Kursdoshlari unga taajjub bilan qarashardi* (Mirmuhsin). Bu gaplarda *alanglamoq, tomosha*

qilmoq, qaramoq fe'llari nigoh fe'llari bo'lib, ular tomonidan *bilan* ko'makchisi vositasida *o'y, diqqat, taajjub* otlari boshqarilib kelgan. Bu otlar 'mushohada' semantikasiga ega. Ular nigoh fe'llari 'holat' valentligining namoyon bo'lgan aktantlaridir.

Eshituv fe'llari ham o'z sememasining holat semasiga ko'ra 'holat' valentligiga ega. Ular shu valentligiga ko'ra *bilan* ko'makchisi vositasida otlarni boshqarib keladi. Eshituv fe'llari *eshitmoq, tinglamoq, quloq solmoq, yangramoq, jaranglamoq* kabilardan iborat. Ular quyidagicha semantika ega otlarni boshqarib keladi:

1. Eshituv fe'llari 'mushohada' semantikasiga ega otlarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan, *Doklad juda diqqat bilan tinglandi* (P.Qodirov). *Sayfi Soqievich Sherzodning e'tibor bilan tinglayotganini darrov sezdi* (O'.Hoshimov). Bu gaplarda eshituv fe'llari *tinglamoq* fe'llari bo'lib, ular *bilan* ko'makchisi vositasida mushohada semantikasiga ega *diqqat, e'tibor* otlarini boshqarib kelgan. Bu otlar eshituv fe'llarining 'holat' valentligiga ko'ra namoyon bo'lgan aktantlaridir.

2. Eshituv fe'llari *bilan* ko'makchisi vositasida 'holat' valentligiga ko'ra ovoz, tovush kabi otlarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan, *Goho tovuqlarning «qu-u-uv» deb keskin va noxush ovoz bilan qichqirgani quloqqa chalinadi* (P.Qodirov). Bu gapda eshituv fe'li *qichqirmoq* bo'lib, u 'holat' valentligiga ko'ra *bilan* ko'makchisi vositasida ovoz otini boshqarib kelgan.

O'zbek tilida yana tam sezuv va hid sezuv fe'llari mavjud. Tam sezuv fe'llariga *totmoq, tamshamoq* fe'llari; hid sezuv fe'llariga *hidlamoq, iskamoq, anqimoq, gurkiramoq* kabi fe'llarni ko'rsatish mumkin. Ularning *bilan* ko'makchisi vositasida 'holat' valentligiga ko'ra biror otni boshqarib kelganligi uchun biror adabiyotdan misol topa olmadik. Biroq bu ular 'holat' valentligiga ko'ra namoyon bo'lmaydi deyilgani emas. Masalan, *Huzur bilan totdi, huzur bilan hidladi* birikmalariga e'tibor berish mumkin. Ularning birinchisida tam bilish semantikasiga ega bo'lgan *totmoq* fe'li, ikkinchisida hid bilish semantikasiga ega bo'lgan *hidlamoq* fe'li ruhiy holat bildiruvchi *huzur* otini boshqarib kelgan. Bu mazkur fe'llarning holat valentligiga ko'ra namoyon bo'lgan aktantlaridir.

XULOSA

Yuqorida ko'rsatilgan sezgi bildiruvchi fe'llar 'holat' valentligiga ko'ra otlarni boshqarib kelgan ekan, tarkib topgan birikmalar so'z semantikasining holat semantikasiga asoslangan, ya'ni birikma klassemasi holat bildirib kelgan.

Ko'rinadiki, sezgi fe'llari tusmollab sezuv, nigoh, eshituv, tam sezuv, hid sezuv fe'llariga bo'linadi. Ularning hammasining semantikasida 'holat' semasi kuzatiladi va

shu semasiga ko'ra 'holat' valentligini yuzaga keltiradi. U shu valentligi asosida ruhiy holat, holat, nigoh, nutq holati, mushohada, ovoz, tovush semantik maydoniga kiruvchi otlarni boshqarib keladi. Bu otlar deyarli holda mavhum ifodaga ega bo'ladi. Ular faqat 'holat' semasiga ko'ra birikma uchun tanlanadi. Shu semasi asosida sezgi fe'llari bilan klassemani yuzaga keltiradi.

REFERENCES

1. Мусаев Т.Т. Глаголы ощущения в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. –Т., 1992. –17 с.
2. Мусаев Т. Сизги ва хошиш-истак феълларининг агенс валентлиги. –Т., 1991. –Б. 42.
3. Миртожиев М.М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке: Автореф.дисс. ... д-ра.филол.наук. –Т., 1989. – 44 с.
4. Лурия А.Р. Ощущение и восприятие. –М.: ИМУ, 1975. -С.11.
5. Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. –Т., 2000. –Б. 24.
6. Мирзакаримова З.Д.Феъл бошқарувидаги билан кўмакчили бирикмалар семантикаси: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. –Т., 2008. –Б. 24.
7. Ботирбекова Г.А. Талабаларнинг оғзаки нутқини ўстириш учун машқлар билан ишлаш - Молодой ученый, 2019. 476-477 б